

“TASDIQLAYMAN”



Chirchiq davlat pedagogika
universiteti rektori
professor G.I. Muxamedov

2023 yil.

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
TA'LIM SIFATINI NAZORAT QILISH BO'LIMI TO'G'RISIDA**

NIZOM

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tarkibidagi Ta'lism sifatini nazorat qilish bo'limi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yig'ilishining 2023-yil 10-fevraldag'i 2-son bayoni 6.3-bandи xamda 2023-yil 27 -martdag'i "Davlat oliy ta'lim muassasalarida Ta'lism sifatini nazorat qilish bo'limlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 72 - son buyrug'iga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, bevosita oliy ta'lim muassasasi tarkibiga kiradi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Nizom Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ta'lism sifatini nazorat qilish bo'limining maqomini, asosiy maqsadini, vazifalarini, huquqlarini va majburiyatlarini, shuningdek faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
2. Ta'lism sifatini nazorat qilish bo'limi (keyingi o'rinnarda matnda - Bo'lim deb yuritiladi) Chirchiq davlat pedagogika universitetining (keyingi o'rinnarda matnda - universitet deb yuritiladi) tuzilmasiga kiradi.
3. Bo'lim nizomi universitet rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi va bo'lim xodimlari tomonidan o'ziga yuklatilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi.
4. Bo'limning asosiy maqsadi universitet talabalari bilimlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini o'rganib borish, tahlil qilish, kadrlar tayyorlash sifati monitoringini yuritish, universitetni ichki attestatsiyadan o'tkazishni tashkil etish va uning natijalari bo'yicha ta'lism sifatiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish va oldini olish choralarini ko'rishdan iborat.
5. Bo'lim rahbar-xodimlari lavozimlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan xolda universitet rektorining buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadi.
6. Ta'lism sifatini nazorat qilish bo'limi bevosita universitet rahbariga bo'ysunadi va mazkur bo'lim faoliyatiga prorektor, dekan va tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi.
7. Bo'lim o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda universitet rektorining buyruqlari va qonuniy ko'rsatmalariga, shuningdek Bo'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq olib boradi.

8. Bo‘lim amalga oshirilgan ishlar, muammolar va kamchiliklar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni muntazam ravishda universitet rektoriga hamda vazirlikning Ta’lim muassasalarini faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta’lim sifatini ta’minlash departamenti taqdim etadi.

II. BO‘LIMNING ASOSIY VAZIFALARI

9. Bo‘limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- universitet va uning tarkibiga kiruvchi ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va monitoringini olib borish;
- talabalar bilimlarining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalarining fanlarni o‘zlashtirish darajasini o‘rganib borish va tahlil qilish;
- ta’lim sifatini ta’minlay oladigan professor-o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish, jumladan salohiyatlari o‘qituvchilarni tanlash, ishga qabul qilish, ularning kasbiy mahorati va malakasini oshirish imkonini beradigan (ob‘ektiv) shaffof tashkiliy mexanizmlarni yaratish;
- professor-o‘qituvchilarning dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilish;
- universitetni ichki baholashdan o‘tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalari bo‘yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;
- o‘quv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to‘g‘ri tashkil etilganligi va HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o‘rganib borish (jumladan, axborot tizimiga ma‘lumotlami o‘z vaqtida va to‘liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi);
- malaka talabalari, o‘quv reja va dasturlarning kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos bo‘lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish;
- bitiruvchi talabalarining kadrlar bozoridagi o‘rni, ularga ehtiyoj, sohaning yashovchanlik darjasini yuzasidan kengaytirilgan xulosalarni shakllantirish;
- o‘quv mashg‘ulotlarini zamонавиу pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlari sifatining nazorati talab darajasida yo‘lga qo‘yilganligini o‘rganib borish;
- dars o‘tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalg etilganligini o‘rganib borish;
- talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta’minlanganligi bo‘yicha ko‘rilgan choralar samaradorligini aniqlash;
- professor-o‘qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o‘rganish;
- professor-o‘qituvchilarga o‘quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qilish;
- axborot-resurs markazida talaba va o‘qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar holati, fanlar bo‘yicha darsliklarning mavjudligi, talabalarga yaratilgan sharoitlarni o‘rganib borish va rahbariyatga takliflar kiritish;
- mustaqil ta’limni talab darajasida tashkil etilishini o‘rganish va tahlil qilish (yo‘riqnomasi yoki uslubiy ko‘rsatmalarini ishlab chiqilishi, mustaqil ta’limni tashkil etish uchun talablarni qo‘yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta’minlash);
- universitetda plagiатга qarshi dasturlarni joriy etilishini ta’minlash (jumladan, akademik halollik tamoyillarini joriy etish va ko‘chirmachilikka qarshi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish);
- vazirlikning topshirig‘iga muvofiq, boshqa oliy ta’lim muassasalarini faoliyatini o‘rganishda ishtirok etish;
- universitet reytingini xalqaro darajaga ko‘tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni oliy

ta'lismuassasasi rahbariyati bilan birgalikda ishlab chiqish va uni ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etish;

- har chorak yakuni bo'yicha universitetda ta'lismifatini oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida vazirlikka hisobot kiritib borish.

III. BO'LIMNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

10. Bo'lismifayidagi huquqlarga ega:

Bo'lismimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun universitet tarkibiy tuzilmalaridan zarur ma'lumotlarni olish;

universitet tarkibiy tuzilmalarida talabalar, tinglovchilar va o'quvchilarni o'qitish sifatini, ta'limgardan tegishli turlari bo'yicha ishchi o'quv rejalarini va fanlarning ishchi dasturlarini DTSlariga, davlat talablariga, malaka talablariga va o'quv reja hamda fanlarning namunaviy dasturlariga muvofiqligini belgilangan tartibda o'rganish;

universitetda attestatsiya jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda ishtirok etish va uning o'z vaqtida bajarilishini nazoratga olish;

universitetda ta'lismifatiga oid qabul qilingan buyruqlar, farmoyishlar va boshqa qarorlarning yetarli darajada ijrosi ta'minlanmaganligi aniqlanganda, mas'ullarga nisbatan tegishli choralar ko'rish uchun rahbariyatga takliflar kiritish;

universitetda ijtimoiy muhitni, kadrlar tayyorlash va ta'lismifatini o'rganish maqsadida doimiy ravishda talaba, ota-onalar, professor-o'qituvchi va kadrlar iste'molchilari o'rtasida ijtimoiy so'rovlardan o'tkazilishini tashkil qilish;

ta'lismifatiga sifati muammolari bo'yicha xalqaro konferensiyalar, anjumanlar, simpoziumlar va seminarlarda ishtirok etish;

belgilangan tartibda universitet Kengashiga saylash va saylanish;

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

IV. BO'LIM IShINI TASHKIL ETISH

11. Bo'lismif universitet tarkibida uning belgilangan shtatlari doirasida universitet rektori buyrug'iga muvofiq tashkil etiladi. Bo'lismif yuridik shaxs maqomiga ega emas.

12. Bo'lismif 3 nafar xodim, ya'ni bo'lismif boshlig'i va ikki nafar bosh mutaxassisdan iborat.

13. Bo'lismif xodimlarining oylik ish haqi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 1 avgustdagagi Respublika oliy ta'lismuassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga (*O'zbekiston Respublikasi QT, 2008 y., 8-son, 40-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 33-son, 852-modda*) muvofiq belgilanadi va universitet tomonidan to'lanadi va universitet xodimlari lavozimlari uchun belgilangan moddiy rag'batlantirish shartlari qo'llaniladi.

14. Bo'lismif faoliyatiga rahbarlik qilish bo'lismif boshlig'i tomonidan amalga oshiriladi. Bo'lismif boshlig'ining lavozimi, prorektor lavozimiga tenglashtiriladi. Bo'lismif boshlig'i bo'limgan (ta'til, betoblik, xizmat safari) davrda uning vazifasini bajarish bosh mutaxassisning biriga yuklatiladi.

15. Bo'limga ta'lismifatini nazorat qilish sohasida amaliy-metodik ish tajribasiga ega bo'lgan malakali mutaxassislar, shuningdek, ilmiy-pedagogik stajga ega bo'lgan shaxslar tarkibidan malakaviy talablarga muvofiq belgilangan tartibda ishga qabul qilinadi.

V. BO‘LIM XODIMLARINING MALAKA TALABLARI VA FUNKSIONAL VAZIFALARI

16. Bo‘lim boshlig‘i lavozimiga qo‘yidagi malaka talablari qo‘yiladi:
- oliy ma’lumotli, ilmiy darajaga yoki ta’lim sohasida muayyan tajribaga (nazariy, tashkilotchilik va boshqaruv qobiliyatini jihatidan) ega bo‘lishi;
 - ta’lim sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi;
 - ta’lim muassasalaridagi pedagogik va ta’lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta’lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo‘lishi;
 - universitetning tarkibiy bo‘linmalari faoliyati xususiyatlarini bilishi;
 - ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo‘lishi;
 - o‘quv, ilmiy-tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini to‘liq tushunishi, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini tayyorlash tartibini bilishi;
 - universitet professor-o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini bilishi;
 - o‘zbek, rus tillarini va xorijiy tillardan birini mukammal bilishi (shtat birligini shakllantirishda xodimning xorijda malaka oshirganligini inobatga olish maqsadga muvofiq);
 - ish faoliyatida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni lozim darajada bilishi.
17. Bo‘lim boshlig‘ining asosiy funksional vazifalariga quyidagilar kiradi:
- universitet va uning tarkibiga kiruvchi ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va monitoringini olib borish;
 - talabalar bilimlarining davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalarining fanlarni o‘zlashtirish darajasini o‘rganib borish va tahlil qilish;
 - ta’lim sifatini ta’minlay oladigan professor-o‘qituvchilar tarkibini shakllantirish, jumladan salohiyatli o‘qituvchilarini tanlash, ishga qabul qilish, ularning kasbiy mahorati va malakasini oshirish imkonini beradigan (ob’ektiv) shaffof tashkiliy mexanizmlarni yaratish;
 - professor-o‘qituvchilarining dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilish;
 - universitetni ichki baholashdan o‘tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalari bo‘yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish;
 - o‘quv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to‘g‘ri tashkil etilganligi va HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o‘rganib borish (jumladan, axborot tizimiga ma’lumotlami o‘z vaqtida va to‘liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi);
 - malaka talabalari, o‘quv reja va dasturlarning kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos bo‘lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish;
 - bitiruvchi talabalarining kadrlar bozoridagi o‘rni, ularga ehtiyoj, sohaning yashovchanlik darajasi yuzasidan kengaytirilgan xulosalarni shakllantirish;
 - o‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarini asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlari sifatining nazorati talab darajasida yo‘lga qo‘yilganligini o‘rganib borish;
 - dars o‘tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalb etilganligini o‘rganib borish;
 - talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta’minlanganligi bo‘yicha ko‘rilgan choralar samaradorligini aniqlash;

professor-o‘qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o‘rganish;

professor-o‘qituvchilarga o‘quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qilish; axborot-resurs markazida talaba va o‘qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar holati, fanlar bo‘yicha darsliklarning mavjudligi, talabalarga yaratilgan sharoitlarni o‘rganib borish va rahbariyatga takliflar kiritish;

mustaqil ta’limni talab darajasida tashkil etilishini o‘rganish va tahlil qilish (yo‘riqnomalar yoki uslubiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta’limni tashkil etish uchun talablarni qo‘yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta’minalash);

universitetda plagiatga qarshi dasturlarni joriy etilishini ta’minalash (jumladan, akademik halollik tamoyillarini joriy etish va ko‘chirmachilikka qarshi ishlarni tizimli ravishda tashkil etish);

vazirlikning topshirig‘iga muvofiq, boshqa oliy ta’lim muassasalari faoliyatini o‘rganishda ishtirok etish;

universitet reytingini xalqaro darajaga ko‘tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni oliy ta’lim muassasasi rahbariyati bilan birgalikda ishlab chiqish va uni ijrosini ta’minalashda faol ishtirok etish;

har chorak yakuni bo‘yicha universitetda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha amalgamashirilgan ishlar to‘g‘risida vazirlikka hisobot kiritib borish;

ta’lim sifatini nazorat qilish sohasida bo‘limga yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarish.

18. Bo‘lim mutaxassisini lavozimiga qo‘yidagi malaka talablari qo‘yiladi:

oliy ma’lumotli, ta’lim sohasida muayyan tajribaga (nazariy, tashkilotchilik jihatidan) ega bo‘lishi;

ta’lim sohasiga oid qonun va qonunosti hujjatlarini, asosiy me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi ;

pedagogik va ta’lim-tarbiya jarayonini bilishi, ta’lim sifatini baholash komponentlaridan xabardor bo‘lishi;

ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik usullarni qo‘llash va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga oid bilimlardan xabardor bo‘lishi;

o‘quv, ilmiy-tadqiqot va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishdagi ishlarning mazmun-mohiyatini tushunishi, yangi avlod o‘quv adabiyotlarini tayyorlashga qo‘yilgan talablarni bilishi;

o‘zbek tilini mukammal, rus va xorijiy tillardan birini yetarli darajada bilishi (shtat birligini shakllantirishda xodimning xorijda malaka oshirganligini inobatga olish maqsadga muvofiq);

ish jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni lozim darajada bilishi.

19. Bo‘lim mutaxassisining asosiy funksional vazifalariga quyidagilar kiradi:

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori va farmoyishlari hamda ta’limga oid boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar, vazirlik va universitet rektori bo‘yruq va ko‘rsatmalari hamda bo‘lim boshlig‘ining topshiriqlari asosida tashkil etish;

bo‘limda me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ish yuritish va ijro nazoratini ta’minalash;

universitet va uning tarkibiga kiruvchi ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va monitoringini olib borishda ishtirok etish;

talabalar bilimlarining davlat ta'lif standartlariga muvofiqligini hamda talabalarining fanlarni o'zlashtirish darajasini o'rganib borishning tashkil etish;

professor-o'qituvchilarning dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilishni tashkil etish;

universitetni ichki baholashdan o'tkazishda va ichki baholash natijalari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etishda ishtirok;

o'quv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to'g'ri tashkil etilganligi va HEMIS tizimidan foydalanish samaradorligini o'rganib borish (jumladan, axborot tizimiga ma'lumotlami o'z vaqtida va to'liq hajmda kiritilganligi, kredit-modul tizimini talab darajasida tashkil etilganligi);

malaka talabalari, o'quv reja va dasturlarning kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish;

bitiruvchi talabalarining kadrlar bozoridagi o'rni, ularga ehtiyoj, sohaning yashovchanlik darajasi yuzasidan kengaytirilgan xulosalarni shakllantirish;

o'quv mashg'ulotlarini zamонавиу педагогик texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlari sifatining nazorati talab darajasida yo'lga qo'yilganligini o'rganib borish;

dars o'tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalganligini o'rganib borish;

talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta'minlanganligi bo'yicha ko'rilgan choralar samaradorligini aniqlash;

professor-o'qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o'rganish;

professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qilish;

mustaqil ta'lifni talab darajasida tashkil etilishini o'rganish va tahlil qilish;

universitet reytingini xalqaro darajaga ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni oliy ta'lif muassasasi rahbariyati bilan birgalikda ishlab chiqish va uni ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etish;

VI. YaKUNIY QOIDALAR

20. Bo'lim xodimlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalari doirasida vazirlikka taqdim etiladigan ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun javob beradi.

21. Bo'lim faoliyatiga oid nizolar, o'zaro munozaralar olib borish orqali yoki qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

22. Mazkur Nizomni bekor qilish yoki unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish belgilangan tartibda universitet rektori tomonidan amalga oshiriladi.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27 -martdagi "Davlat oliy ta'lif muassasalarida Ta'lif sifatini nazorat qilish bo'limlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 72 - son buyrug'iga muvofiq ishlab chiqildi.